

INSON FAOLIYATINING O'SIMLIKLARGA TA'SIRI

Bozorova Nodira Erkinova

BMTI akademik litseyi biologiya fani o'qituvchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada insonning tabiatga, o'simlik dunyosiga ta'siri haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Insoniyat, o'simlik, hayvon, yer, organizm, evolyutsiya, element, tirik jonzot, moddalar.*

Butun insoniyat oldida eng muhim vazifa - Yerdagi yashovchi barcha organizmlarning xilma-xilligini saqlash. Barcha turlar (o'simliklar, hayvonlar) bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Hatto ulardan birining yo'q qilinishi u bilan o'zaro bog'liq bo'lgan boshqa turlarning yo'q bo'lib ketishiga olib keladi. Inson asbob-uskunalarini o'ylab topib, ozmi-ko'pmi oqilona bo'lgan paytdan boshlab, uning sayyora tabiatiga har tomonlama ta'siri boshlandi. Inson qanchalik rivojlangan bo'lsa, uning Yerdagi muhitga ta'siri shunchalik ko'p bo'lgan.

Butun evolyutsiya davomida yer yuzida hayot juda murakkab va barcha tirik organizmlarni o'zaro birligi, bir-birini taqozo etishlari bois, uni o'zi uchun zarur bo'lgan biogen elementlarni doimiy ravishda ta'minlanib kelingan. Tirik moddaning muhim bioximik funksiyasi bor ya'ni hayot doimiy ravishda davom etib kelgan. Bu jarayonda, birinchi o'rinda insonni roli katta. Yer yuzini o'zgartirishda, oxirgi asrlarda, ayniqsa insonni ta'siri kuchayib ketdi, bu insonni biologik tur sifatida ta'siri emas balki, uni xo'jalik faoliyati tufayli sodir bo'lmoqda. Insonni tabiatga, tirik mavjudotlarga ta'siri, albatta qadim davrlardanoq boshlangan. Insonni hayvonlardan foydalanishi, dehqonchilik bilan shug'ullanishi o'zlashtirib olishi, asta-sekin tabiiy o'simliklar qoplamlarini o'zgarishiga olib keladi. Qadimgi kishilik jamiyatidagi formatsiyalarda tabiatdan foydalanish, rejasiz va tartibsiz bo'lgan. Agar insonlar faoliyati tartibsiz xolda (istisno, o'zi bilarmonlik) rivojlansa, ya'ni ongli ravishda boshqarilmasa, u o'zidan so'ng faqat cho'lni qoldiradi.

O'simliklar qoplami o'zgarishiga insonning va uning xo'jalik faoliyatining ta'sirini o'rganish fitotsenologiyaning vazifasiga kiradi. Keyingi vaqtlarda atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi birinchi o'ringa qo'yilayotganligi munosabati bilan bunga juda katta ahamiyat berilmoqda. Bu masalani hal etishda turli ixtisosdagi ekologlar borgan sari keng jalb etilmoqda. Ekolog tarixiy jihatdan eng yosh va ayni vaqtda yangilik hisoblangan antropogen ekologik omillar ta'sirining asosiy aspektlari oldida befarq bo'la olmaydi.

O'simlik qoplamiga insonning ta'siri nihoyatda katta. Yer yuzidagi aholini hisobga oladigan bo'lsak, inson o'simliklarga ta'sir ko'rsatuvchi juda katta omil ekanligini anglash mumkin. Insonning o'simliklar dunyosiga ta'siri boshqa omillardan son jihatdan ham farq qiladi. Bunday ta'sir garchi har doim maqsadga muvofiq kelmasa ham doim aniq bir maqsadga qaratilgan bo'ladi. Shunga ko'ra, insonning ta'siri doim qandaydir bir maqsadga ega bo'ladi. Lekin u hamisha ham foydali chiqavermaydi, chunki ba'zida inson o'simlikdan o'zinint foydasi uchungina foydalanish maqsadida uni kesib yo'q qiladi, oqibatda bu hol butunlay zararli bo'lib chiqadi. Yer yuzida odam paydo bo'lishi bilan evolyutsiyaning stixiyali jarayoniga prinsipial yangi element kirib keldi, inson tabiatda o'ziga yoqqan o'simliklarni tanlab oldi, ularni o'stirdi va yaxshiladi. Eslatib o'tish mumkinki, bug'doy, makkajo'xori kabi qimmatli o'simliklarning paydo bo'lganiga bir necha ming yillardan ham oshib ketgan. Bizning ko'z o'ngimizda kechagina yovvoyi bo'lgan saksovul va shu kabi o'simliklar hozirgi kunda madaniy o'simliklar sanaladi va hokazo. Qadimgi Xitoy va Misrda yeramizdan xatto 3000 yil avval ham qirqbo'g'im, efedra, bangidevona, ko'knor, kanakunjut kabi o'simliklardan dorivor maqsadlarda foydalanib kelingan.

Insonni tabiatga, jumladan o'simliklar dunyosiga bo'ladigan ta'siri ongsiz va ongli ravishda sodir bo'ladi. Insonning ongi ravishda o'simliklarni ko'plab yig'ishi, o'rmonlarni kuydirib yuborishi, ularga (ya'ni o'simliklarga) salbiy ta'sir ko'rsatgan. Hozir ham ongsiz ravishda odam bir joydan, ikkinchi joyga borib, o'zi bilan birga, ya'ni o'zi bilmagan holda ayrim o'simliklarni (bodom, pista, yong'oq, zira, zirk) olib borib yangi joyga tushirishi mumkin. Bu esa o'sha joylarda yangi o'simliklarni paydo qiladi, bora-bora ular ko'payib ketishi mumkin. Insonlar yangi-yangi unumdor yerlarni o'zlashtirish uchun tikonli, chakalakzorlarni kuydirib yuborgan. Natijada o'sha yerlardagi qimmatli va noyob o'simliklar turlarini yo'qolib ketishiga olib kelgan. Ongsiz ravishda bir o'simlikni ko'paytirish deb ikkinchi, u o'ylamagan turni keltirib chiqarishi ham mumkin. Insonlar o'zlari uchun qulay va yaxshi hisoblangan mashina, traktor va samolyotni ixtiro kildi, lekin ular atrof-muhitga zarali gazlarni chiqarib o'simliklarga salbiy ta'sir etmoqda. Transport vositalari ko'plab kislorodni sarf qilib, karbonat angidrid gazini atmosferaga chiqarmoqda, demak insonlarning faoliyati bilan bog'li holda atmosferani tarkibi o'zgarib, u esa o'simliklar dunyosiga salbiy ta'sir etmoqda.

O'simliklar dunyosiga salbiy tasir ko'rsatadigan antropogen omillariga, yana kimyoviy birikmalar bilan qishloq xo'jalik ekinlariga ishlov berishni kiritish mumkin. Bunda begona o'tlarga qarshi ayrim gerbitsidlar ishlatiladi, bu jarayonda ayrim ko'ngilsiz xodisalar ham bo'ladi. Begona o'tlar bilan bir qatorda boshqa

o'simliklar ham yo'qotiladi. Gerbitsid, pestitsid, insektitsidlar foydali xususiyati bilan birgalikda salbiy tomonlari ham bor.

Shuni ta'kidlash kerakki, odamlar ham ma'lum, ham katta foyda keltiradi. Shu nuqtai nazardan insonning tabiatga ta'sirini ta'kidlash kerak. Atrof-muhitni yaxshilash bo'yicha odamlar tomonidan olib borilayotgan tadbirlarning ijobiy tomoni muhit. Yerning ko'plab keng hududlarida turli mamlakatlar qo'riqlanadigan hududlar, yovvoyi tabiat qo'riqxonalari va bog'lar tashkil etilgan - hamma narsa asl ko'rinishida saqlanadigan joylar. Bu insonning tabiatga eng oqilona ta'siri, ijobiy. Bunday qo'riqlanadigan joylarda odamlar o'simlik va hayvonot dunyosini saqlashga hissa qo'shadilar.

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki, o'simliklar olamini va inson hayotidagi o'rni va ro'li g'oyat katta. Ular doimiy ravishda atmosferani kislorod bilan boyitib, karbonat angidrid gazini kamaytirib turadi. Hech mubolag'a qilmay aytish mumkinki, Yer yuzidagi o'simliklar dunyosini hayotning asosi, barcha tirik mavjudodlar borlig'ini taminlovchi asosiy manba sanaladi. Shuning uchun yashil xazinamiz hisoblangan o'simliklar dunyosini muhofaza qilish barchamizning qarzimiz va farzimizdir. Zero bu olam ham hozirgi va kelgusi avlodlarga uzoq yillar xizmat qilmog'i kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yergashev A.E., Sheraliev A.SH., Suvonov X.A., Yergashev T.A. - Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent "Fan". 2009.
2. Gorishina T.K. - Ekologiya rasteiy. M. "Visshaya shkola". 1979.
3. Kul'tiasov I.M., Axunov X.M. - O'simliklar ekologiyasi. T. O'qituvchi. 1980.
4. Abarjon o'g'li, A. A., & Barchinoy, M. (2022). YER USTI VA OSTI SUVLARINI IFLOSLANTIRUVCHI ASOSIY MANBALAR. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 216-219.
5. Chernova N.M., Bilova L.M. - Ekologiya. M. "Prosveshenie". 1981